

KICHIK BIZNES KORXONALARINI INVESTITSIYALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI

Eshmirzayev Nodir Mamadraximovich,

Tojiboyev Oybek Otabekovich

Namangan muhandislik texnologiya instituti

“Iqtisodiyot” fakulteti “Iqtisodiyot” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada xorijiy investitsiya va kreditlarning ajratilishi ko'rib chiqiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy etishi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishi.

Kalit so' zlar: xorijiy investitsiyalar , kichik biznes, investitsiyalar, lingvistik o'zgaruvchi, a'zolik funksiyasi

Barchamizga ma'lumki, kichik biznes sub'ektlariga mustaqillik berish, ular faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini oshiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'naliшlaridan biribo'lib hisoblanadi. Shu jumladan, hozirgi kunda tijorat banklarining ham oldiga quyilgan eng asosiy vazifalardan biri - kichik biznes sohasini yetarlicha moliyaviy resurslar va xizmatlar bilan ta'minlashdan iboratdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatda raqobatchilikning zarur muhitini hosil qilib, bozor sharoitidagi ko'pgina o'zgarishlarga tezda moslasha oladi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida yangidan-yangi qo'shimcha ish o'rinalarini yaratadi va mamlakatda ijtimoiy muhitni ta'minlash uchun o'rta sinfni shakllantirish manbai hisoblanadi.

“2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlanishning beshta ustuvor yo'naliши bo'yicha harakatlar strategiyasi ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar xukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb etishi ta'kidlangan. Xususan, 2017 yilda qishloq xo'jaligini rivojlanish uchun Xalqaro moliya tashkilotlari mablag'larini jalb etish:



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th March, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

- Osiyo taraqqiyot bankining 150.0 mln.dollar bablag'ini "Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish" loyihasiga;

- Xalqaro taraqqiyot va tiklanish bankining 150.0 mln.dollar mablag'ini "Chorvachilik sektorini rivojlantirish" loyihasiga - Xalqaro qishloq xo'jaligi taraqqiyoti jamg'armasining 23.8 mln.dollar mablag'ini "Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida sut mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta ishlashni rivojlantirish" loyihasiga ¹jalg etish ko'zda tutilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini kreditlash orqali qo'llab-quvvatlashni yuqori darajada saqlab qolish rejalashtirilmoqda. Chunonchi, tijorat banklari tomonidan shu maqsadlar uchun 5,1 trillion. so'm ajratilishi nazarda tutilmoqda. Bunda imtiyozli kredit resurslari asosan uzoq qishloq tumanlarida va mehnat bozoridagi vaziyat og'ir bo'lgan hududlarda ish o'rini yaratishni nazarda tutadigan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Ish o'rini yaratishning ushbu yo'nalishdagi asosiy tarmog'i xizmat ko'rsatish va servis sohasi bo'lib, xususan, mamlakat YaIMda xizmat ko'rsatish ulushining maqsadli parametrlariga (52,5 foiz) erishish doirasida kichik biznes korxonalarida 267,1 mingta ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmat turlarini avvalo qishloq joylarida kengaytirish va sifatini oshirish hamda shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uyg'un rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasining roli va ahamiyatini oshirishga doir maqsadlarga erishilishiga bevosita bog'liq. Mazkur soha kelgusi yilda 18 foizdan ortiqroqqa oshishi kutilayotgan kompyuter dasturlarini yaratish (elektron ta'lim va konsultativ xizmatlarni inobatga olgan holda), savdo va umumiy ovqatlanish, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hisobidan yanada rivojlanadi. Yakka tadbirkorlikning rivojlanishi 117,7 ming kishining bandligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda raqobatning roli beqiyosdir. Raqobat - iqtisodiyotni harakatga keltiradigan kuch. Shu bois davlatimiz tomonidan monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni huquqiy tartibga solish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

¹ Sh.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi

Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th March, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

Prezidentimiz 2010 yilning 12 noyabrida o'tgan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «...bozor munosabatlarining asosi bo'lган raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari katta rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrdagi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonuni o'tgan yillar mobaynida ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solishda muhim rol o'ynadi. Biroq yangi iqtisodiy sharoitda raqobat munosabatlarini tartibga solishning samaradorligini oshirish maqsadida, birinchidan, raqobatni rivojlantirishni ragbatlantirish, ikkinchidan, monopolistik faoliyatni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Shunga asosan, qonunga tovar bozorlarida, shuningdek, moliya va birja xizmatlarida monopolistik faoliyatni cheklashga qaratilgan normalarni kiritish talab etilmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan izchil raqobat siyosati amalga oshirilayotgani, uni huquqiy ta'minlashga jiddiy ahamiyat berilayotgani tufayli tovar va xizmatlar bozorida monopolistik faoliyat darajasining kamayishiga erishildi. Bunday choralar bozorga yangi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning kirib kelishida ular o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Statistik tahlillarning ko'rsatishicha, mamlakatimizda so'nggi o'n yil ichida monopolist korxonalar sonining 721 tadan 184 taga, ya'ni 4 baravarga kamayishiga erishilgan. Shu o'rinda aytish joizki, sog'lom raqobatning iqtisodiyotdagi o'rni va roli oshgan sayin tovar bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan korxonalar soni kamayib boradi.

Sog'lom raqobatni rivojlantirish uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan infrastrukturaning rivojlanishiga va uning sifat darajasini oshirishiga e'tibor qaratishlari lozim (Xududlarga investitsiya jalb qilish ilovada keltirilgan). Davlat mulk qo'mitasidagi ma'lumotlardan foydalangan holda, foydalanishga yaroqli bo'lган imorat, bino va inshbotlardan texnologiyalarni jalb qilib, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdır.

Xulosa qilib, bugungi kunda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz:





Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th March, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni takomillashtirishning boshqa davlatlardagi samarali tajribasini inobatga olib, respublikamizda maxsus mikrokredit tashkilotlarini tashkil etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni takomillashtirishda asosiy muammolaridan biri bo'lgan garov masalasida yordam ko'rsatish maqsadida, Kafolat fondini tashkil etish;
- investitsiya va pay fondiga a'zo qilishni yo'lga qo'yish. Mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi, savdo va sanoatning globallanguv jarayonlari, zamonaviy axborot tizimlarining taraqqiyoti, jahon bozoridagi kon'yunkturani bilish ishbilarmonlardan katta bilimni taqozo etmoqda. Biz shundan kelib chiqib, tadbirkorlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga, ularning zamonaviy elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga e'tiborni kuchaytirish lozim deb bilamiz. Bular, shubhasiz, kichik biznes vakillarining ichki va tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlashga olib keladi.
- Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish maqsadida qo'yidagilarni taklif qilamiz:
 - iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsiyalar va savdo vazirligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorlikda doimiy ravishda mamlakatimizga import qilinayotgan maxsulotlar nomenklaturasini o'rjanib borishlari, ushbu maxsulotlarni mamlakatimizda ishlab chiqarish imkoniyatlarini taxlil qilishlari, xuddi pguningdek qo'shni davlatlar, MDX davlatlari eksportida qanday mahsulotlar asosiy o'rinn tutishini hamda mamlakatimizdan ushbu mamlakatlarga eksport qilishimiz mumkin bo'lgan mahsulotlarni tahlil qilishlari lozim. Mazkur taxliliy ma'lumotlarni ommaviylashtirish maqsadida chop etib borish va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilinishi lozim;
 - mamlakatimiz tadbirkorlariga mahsulotlarini eksportga yo'naltirishda ko'maklashish maqsadida Tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsiyalar va savdo vazirligi va Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari qoshida logistika xizmatlarini ko'rsatuvchi yoki qaysi davlatga qanday yo'llar orqali eng arzon va eng xavfsiz mahsulotlarini etkazib berishlari mumkinligi to'g'risida maslahatlar beruvchi



konsultativ markazlarni tashkil etish;

- xalqaro moliya institutlarining kichik biznes sub'yeqtłari qo'llab quvvatlash maqsadida uzoq muddatli va past foizli kredit liniyalarini jalb etishda, Markaziy bank va Tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsiyalar va savdo vazirligining ishtiroki respublikamiz tijorat banklarining bu boradagi sa'y-harakatlarini osonlashtirgan bo'lar edi.
- mamlakatimizda har bir jismoniy yoki yuridik shaxs qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'o'llanishga haqli va ushbu qonun bilan himoya qilinadi. Mamlakat ichida va tashqarisida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.
- Kichik biznesni xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan kreditlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar:
 - mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyati yuqoriligini hisobga olgan holda, joylarda kichik biznes subyektlariga mini texnologiyalar sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish mexanizmini takomillashtirish; kredit uyushmalari faoliyatini takomillashtirish;
 - moliyalashtirish institutlari va sug'urta kompaniyalarini pul o'tkazuvchi kompaniyalar bilan hamkorligini ta'minlash;
 - moliyalashtirish institutlarini boshqa korporativ formalarga aylanishiga imkon berishning qonuniy shart sharoitini ta'minlash;
 - kichik biznes subyektlariga nafaqat milliy valutadagi imtiyozlar haqida balki, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ajratilayotgan kredit va grantlar haqidagi ma'lumotlarni to'liq va aniq namoyon bo'lishi uchun turli hil seminarlarni tashkil etish. Tadqiqot natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, yurtimizdagи tijoratbanklar amaliyotida kichik biznes sub'ektlarini kreditlash bo'yicha ancha tajribalar yig'ilmoqda. Chet el banklari tajribalaridan ham unumli foydalanib kelinmoqda. Ammo mamlakatimizda kichik biznesni kreditlash jarayonining o'ziga xos muammolari ham mavjud. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni kreditlash faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va mavjud bo'lgan muammolarni chet el tajribasini inobatga olgan holda bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflarni amalga oshirish kerak degan fikrdamiz:
 - maxsus kredit tashkilotlarini tashkil etish va ular foliyatida kichik biznesni kreditlashni asosiy vazifa sifatida kiritish;



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th March, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

- kichik biznesni kreditlashda xorijiy davlatlarning samarali banktajribasiga tayangan holda, ushbu tajribalarni Respublikamizda mazkur soha miqyosida targ'ib qilish;
- kichik biznes sub'ektlarini asosiy muammolaridan biri bo'lgan garov masalasida yordam ko'rsatish maqsadida, turli kafolat fondini tashkil etish; kredit uyushmalari faoliyatini takomillashtirish;
- Shu o'rinda, Respublikamiz tijorat banklarining kichik biznes subuektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati bo'yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:
- kredit siyosatida kreditlarni joylashtirish jarayonida kichik biznestarmog'i uchun limitlarni ko'paytirish.
- respublikamiz tijorat banklari kredit portfelining diversifikasiya darajasiga yanada e'tiborini oshirish.
- tijorat banklari kredit bo'linmalari xodimlarining korxonalar moliyaviy hisobotlarini talil qilish borasidagi bilimi va tajribalarini oshirish choralarini ko'rish lozim.
- bank xodimlarining moliyaviy tahlil sohasida chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi mijozlarning kredit to'loviga qobiliyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrdagi "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 1442-soni Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi "Navoiy" erkin-industrial iqtisodiy zonasи faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 105-soni Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Investitsiya Dasturi to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori. 25 dekabr 2015 yil PQ – 2458 – son.